

**Journal of**  
**Natural  
science**

**No5  
2021**

**<http://natscience.jspi.uz>**



<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p><b>Бош муҳаррир –</b> У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p><b>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова,</b> PhD, доц.</p> <p><b>Масъул котиб-</b> Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.</li><li>2. Шылова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)</li><li>3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА</li><li>4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya</li><li>5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор</li><li>6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>7. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор</li><li>8. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц</li><li>9. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.</li><li>10. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.</li><li>11. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф</li><li>12. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>13. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.</li><li>14. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц</li><li>15. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.</li><li>16. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)</li><li>17. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц</li><li>18. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)</li><li>19. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>20. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц</li></ol>
<p><b>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</b></p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

АХОЛИСИ 100 МИНГДАН КАМ ДУНЙО МАМЛАКАТЛАРИ  
ГЕОГРАФИЯСИ

*i.f.n.Kamolov M.N*

**Jizzax davlat pedagogika instituti**

**Annotatsiya.** Maqolada yer yuzidagi aholisi soni yuz mingdan kam bo'lgan davlatlar ro'yxati keltirilgan jadval va Aruba va Nauru kabi davlatlar geografiyasi muhokama etilgan.

**Kalit so'zlar:** aloe, xristian, oval, florin, chig'anoq, mitti, nauru, sektor.

**Аннотация.** В статье обсуждается таблица со списком стран с населением менее ста тысяч человек и география таких стран, как Аруба и Науру.

**Ключевые слова.** алоэ, христиан, овал, фтор, ракушка, карлик, науру, сектор.

**Abstrakt.** This article discusses a table listing countries with a population of less than one hundred thousand and the geography of countries such as Aruba and Nauru.

**Keywords.** aloe, christian, oval, fluorine, shell, dwarf, nauru, sector.

**Kirish.** Bugungi kunda dunyoning siyosiy xaritasida 230 dan ortiq davlatlar bo'lib shundan 2 tasi milliarder (Xitoy, Hindiston), 10 tasining aholisi 100 mlndan ortiq bo'lgan davlatlar, 12 tasining aholisi 50 mlndan 100 mlngacha bo'lgan davlatlar, bundan tashqari 1 mlndan kam bo'lgan davlatlar ham 53 tani tashkil etadi. Ushbu davlatlar qatorida aholisi soni 100 mingdan kam bo'lgan davlatlar ham o'rin olgan bo'lib ulardan Tinch okeani orollarida joylashgan Aruba va Nauru davlatlari geografiyasiga to'xtalib o'tamiz

**Asosiy qism.** Yer kurrasida shunday davlatlar bor-ki, ularda yashaydigan jami aholi soni 100 mingdan ham kam hisoblanadi. Aholisi soni nuqtai nazaridan geograflar tilida bunday davlatlarni kichik yoki mitti davlatlar deb yuritiladi, ammo bu davlatlar ham o'zining davlat tuzilishiga, ma'lum hududiga, ishlab chiqarish sohasiga, iqtisodiy jihatdan rivojlanishga, tashqi mamlakatlar bilan savdo-sotiq ishlari olib borish, ya'ni eksport-import munosabatlariga ega davlat hisoblanadi.

Jumladan, Aruba davlati Atlantika okeanida joylashgan orol davlat bo'lib, Poytaxti – Oranestad bo'lib, hududi 193 km<sup>2</sup>ni tashkil etadi, aholisi-66727 kishi, davlat tili-golland tili. Aholisi asosan katolik (82%) diniga itoat etadi. Pul birligi-Aruba florin.

Aruba davlati Markaziy Amerikada, Karib dengizining sharqiy qismida, Kichik Antil orollarining birida joylashgan bo'lib Vest-Indiyadagi davlat

hisoblanadi. Davlat hududi o‘simlik dunyosi unchalik boy emas. Iqlimi-subekvatorial.

Arubaning davlat tuzilishi-konstitutsion monarxiya, bo‘lib bir vaqtlar Niderland qirolligining sobiq avtanom hududi bo‘lgan, 1996 yilda mustaqillikka erishgan. Milliy bayrami 18 mart-Aruba bayrog‘ kuni sifatida nishonlanadi.

Iqtisodining muhim sektorlaridan biri bu -turizmdir. Offshor bank biznesi, neft tozalash va yuk saqlash ham rivojlangan. Qishloq xo‘jaligida asosan “aloe” yetishtirish, uy hayvonlarini boqish va baliq ovlashdan iborat. Mamlakat hududida transportning avtomobil va dengiz transporti yaxshi rivojlangan. Jumladan avtomobil yo‘llarining uzunligi 380 km ni tashkil etadi. Dengiz portlari: Oranestad, Sent-Nikolas. Asosiy savdo hamkorlari: AQSH va Yevropa Iqtisodiy Hamkorligi davlatlari.

Nauru Respublikasi poytaxti-Yangor (Yaren). Maydoni 21 km<sup>2</sup>, aholisi-10356 kishi, davlat tili-nauru, ingliz. Aholisining asosiy qismi xristianlikdiniga e‘tiqod qiladi. Pul birligi- Avstraliya dollari hisoblanadi.

Nauru Respublikasi Tinch okeanining janubi-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, Marshall orollaridan janubida, Soloman orollarining shimolida, Nauru orolida joylashgan Okeaniya davlati hisoblanadi. Sohil bo‘ylab chegara uzunligi-30 km. Marjon orol oval (uyum) shaklida bo‘lib, sohil bo‘ylab qumli qirg‘oqlari shakllangan, asosiy tabiiy resursi –fosforit keng tarqalgan. Davlat hududi ekvatorial iqlim mintaqasida joylashganligi uchun ekvatorial mussonli iqlimi shakllangan.

Davlat tuzilishi-respublika bo‘lib, Nauru Buyuk Britaniya Hamdo‘stligi davlatlari tarkibiga kiradi. Nauru 1968 yil 31 yanvarda mustaqillikka erishgan (oldingi nomi- Yoqimli orol-Buyuk Britaniya, Avstraliya, Yangi Zelandiya birgalikda boshqargan). Davlat va hukumat boshlig‘I – president bo‘lib, siyosiy partiyalari: Nauru partiyasi, Nauru demokratik partiyasi.

Mamlakat iqtisodiyotining asosini fosfat qazib olish va uni eksport qilish tashkil etdi. Qishloq xo‘jaligi keng taraqqiy etmagan bo‘lib. Mamlakat hamma istemol tovarlarini va oziq-ovqat mahsulotlarini, jumladan, chuchuk suvni ham chetdan keltiradi. Mamlakat transporti tarmoqlaridan avtomobil, dengiz transportlari yaxshi rivojlangan. Avtomobil yo‘llari uzunligi 27 kmni tashkil etadi. Asosiy porti - Nauru shahri hisoblanadi. Asosiy savdo hamkorlari: Avstraliya, Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya.

Quyida aholisi 100 mingdan kam bo‘lgan mamlakatlar haqida qisqacha malumot beramiz (jadval – 1).

### Aholisi 100 mingdan kam dunyo mamlakatlari

(jadval – 1)

T/r	Mamlakat nomi	Maydoni km <sup>2</sup>	Aholisi kishi (2020 y)	Poytaxti	Davlat tili	Dini	Pul birligi	Mustaqil bo'lgan vaqti
1	Angilya (Angilya, Anguilla)	96	15186	Valli	Ingliz	Xristianlik	Sharqiy Karib dollari	1981 y 18 iyun
2	Antigua va Barbuda	442	97875	Sent- Djons	Ingliz	Protes tantlik	Sharqiy Karib dollari	1981 y 1 noyabr
3	Bermud orollari (Buyuk Britaniya mulki)	53	62844	Gamilton	Ingliz	Xristianlik	Bermudollar i	1995 yildan B.B. mulki
4	Vatikan	0.44	900	Vatikan	Italyan va lotin	Katolik (100%)	yevro	1929 y
5	Vergin orollari (B.B. mulki)	153.4	30493	Rod-Taun	ingliz	Protes tantlik	Sharqiy Karib dollari	1967 yildan B.B. mulki
6	Gibraltar (Buyuk Britaniya mulki)	6.5	34477	Gibraltar	Ingliz	Katolik (75%) Protes Tant (11%) Islom (8%) ) Yahudiy (6%)	Gibraltar Funt-sterlingi	1713 y. dan B.B. mulki
7	Grenlandiya	2175600	57805	Nuuk (Gotxob)	Grenland, dat	Katolik	Daniya kronasi	1979 y 1 may
8	Kayman orollari (Buyuk Britaniya mulki)	259	66391	Jorjtaun	Ingliz	Protes tantlik	Kayman orollari dollari	1972 y. dan B.B. mulki
9	Lixtenshteyn	157	37893	Vaduts	Nems	Katolik (87%) ProtesTant. (7%)	Shvetsariya franki	1866 y

10	Monako	1.9	39000	Monako	Fransuz	Katolik (95%)	yevro	1949 y
11	Montserrat	102	5738	Polimut	Ingliz	Xristianlik	Sharqiy Karib dollari	1962 y
12	Muqaddas Yelena Orol (Buyuk Britaniyamulki)	400	6686	Jeymstaun	Ingliz	Xristianlik	Muqaddas Yelena o. Funt-sterlingi	1966 y.dan.B.B.mulki
13	Nauru	21	10866	Yangor (Yaren)	Nauru, Ingliz	Xristianlik	Avstraliya dollari	1968 yil 31 yanvar
14	Palau	508	18393	Karor	Ingliz (chamoro,belau, karolina)	Xristianlik	AQSH dollari	1994 yil
15	San-Marino	61	34355	San-Marino	Italyan	Katolik	yevro	1815 yil
16	Sen-Pyer va Mikelon (Fransuziya region)	242	7117	Sen-Pyer	Fransuz	Katolik	Fransiya franki	1985 yildan Fransiya Region
17	Sen-Kits va Nevis	281.6	53046	Vaster	Ingliz	Xristianlik	Sharqiy Karib dollari	1983 yil sentyabr
18	Terks va Kaykos Orollari (Buyuk Britaniya mulki)	430	17500	Kokbern-Taun	Ingliz	Xristianlik	AQSH dollari	1959 yildan B.B.mulki
19	Farer orollari	1400	4900	orexvan	Dat va farer	Lyuteranlik (95%)	Daniya kronasi	1948 yil
20	Tuvalu	25.9	11885	Funafuti	Tualu va Ingliz	Protes tantlik	Avstraliya va Tualu dollari	1974 yil

Yuqorida keltirilgan jadval malumotlarida ko'rsatilgan davlatlarning bazilarida aholisi 100 mingga yaqin bo'lsa, bazi davlatlarda aholi soni 1000 va undan kamdir. Bazi davlatlarning hududi 44 gektarni (Vatikan) tashkil etsa, bazi bir davlatlarning hududi 2 mln km<sup>2</sup> dan (Grenlandiya) oshiqdir. Bazi mamlakatlarning mustaqillikka erishganiga 1.5 asr (Lixtenshteyn) bo'lgan bo'lsa, bazi mamlakatlarning mustaqillikka erishganiga atigi 8-5 yil (Aruba, Andorra, Palau) bo'lgan xolos.

Xulosa qilganimizdek, ushbu aholisi aholisi 100 mingdan kam dunyo mamlakatlar ayrimlarining iqtisodiyotida asosiy o'rinni turizm, "aloe" eksport qilish, fosforit, baliq, dengiz chig'anoqlari eksporti ustun tursa, ba'zi davlatlar barcha istemol mollari va oziq-ovqat mahsulotlarini, hattoki, chuchuk suvni (Aruba) import qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Adilova, O. (2021). FЎБДИН ТОҒИДА ЧЎЛЛАНИШ ЖАРАЁНИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ИНДИКАТОРЛАР. *Журнал естественных наук*, 1(2).
2. Mahkamovich, KK, Normatovich, KM, Oserbayevich, BO, & Matenovich, SK (2020). Geografik nomlar. *Tanqidiy sharhlar jurnali* , 7 (6), 121-124.
3. Sabitova, N., Ruzikulova, O., & Aslanov, I. (2021). Experience in creating a soil-reclamation map of the Zarafshan river valley based on the system analysis of lithodynamic flow structures. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 227). EDP Sciences.
4. Kamolov, M. (2020). ДАВЛАТ ВА ПОЙТАХТ НОМЛАРИ БИР ХИЛ БЎЛГАН МАМЛАКАТЛАР ҲАҚИДА. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-251.
5. Kamolov, M. (2020). Осиёнинг митти давлатлари ҳақида. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
6. Abdullayev, I., & Holmirzayev, J. (2020). ЖИЗЗАХ СУВ ОМБОРИ ВА УНДАН ОҚИЛОНА ФОЙДАЛАНИШНИНГ ГЕОГРАФИК ЖИҲАТЛАРИ. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
7. Абдуллаев, И. Х., Каримов, И. Э., & Ёкубжонова, Г. Х. ВЛИЯНИЕ ВОДОХРАНИЛИЩ НА ПРИРОДНУЮ СРЕДУ.
8. Хакимов, К. М. (2020). ЖОЙ НОМЛАРИДА ТАБИАТ ВА ЖАМИЯТ АЛОҚАДОРЛИГИНИНГ АКС ЭТИШИ. *ГЕОГРАФИЯ: ПРИРОДА И ОБЩЕСТВО*, 1(4).